PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

Abdusattarova Gulida
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Urgut filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi
@elektrongmail000.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20003813

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat,madaniyat, iqtisodiy, milliy g'urur,urf-odatlar, axloqiy fazilatlar.

Abstract: This article discusses the issues of instilling national values in the minds of the younger generation and educating them in the spirit of the national values during the educational process .

Keywords: national value, culture, economic, national pride,traditions,moral qualities.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston globallashuv jarayonlari juda tez sur'atlarda rivoj topib borayotgan bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlarni izchillik bilan olib borishga , xalqimizning milliy qadriyatlarini va o'zligini anglashga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda.Ta'kidlab o'tish kerakki, yurtimizda xalqimizning milliy va madaniy qadriyatlarini tiklashga ,uni yangidan boyitishga shart-sharoitlar yaratib berildi.

Milliy qadriyatlar – voqealikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, madaniy -ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Bu tushuncha faqat tarix va madaniyat emas,balki yoshlarning qalbida mehr, tabiatga hurmat, odob -axloq, ota-onaga mehr-muhabbat, milliy va ekologik madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otuvchi bebaho xazina gavhardir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.Bunda ularda milliy g'urur, ong, odob axloq, an'ana, oila, sadoqat kabi tushunchalar shakllanib boradi.

Ta'lim tizimi milliy qadriyatlarni yetkazuvchi eng samarali vositadir.Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish ularning keyingi hayotiy yo'nalishlarini , ijtimoiy fazilatlarini belgilab beradi. Bola o'zining tarixini , urf-odatlarini anglay boshlaydi. Bu faqat bilim bilan emas, balki qalb bilan ta'sir etish orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish darslarida ertak, maqol, topishmoqlar orqali ; tasviriy san'at va musiqa darslarida qo'shiqlar, milliy liboslar orqali milliy qadriyat tushunchasi yetkazib boriladi . Faqatgina bu fanlar emas, balki boshqa fanlar orqali ham ularga tushuntirib boramiz. Aytib o'tganimizdek, milliy qadriyatlar bu faqat tarix va madaniyat emas, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, inson qalbidagi mehr-muhabbat, boshqa insonlarga nisbatan ham mehrli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, vatanparvarlik , insonparvarlik, o'z yurtini sevishi va avaylashi kabi ulug'vor tuyg'ularni bebaho xazina kabi sayqallab beradi.

Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda eng muhim omil – o'qituvchi namunasidir.O'qituvchi milliy libosga, odob-axloqqa, o'zligiga, o'quvchilariga bo'lgan munosabatida ibrat bo'lishi kerak. Har qaysi o'quvchi o'qituvchisidan ayrim xususiyatlarni , fazilatlarni, tarbiyani , odob-axloqni o'ziga namuna qilib oladi. O'quvchilarga namuna bo'lish uchun o'qituvchida kerakli bo'lgan barcha yaxshi

xususiyatlar, fazilatlar kamol topgan bo‘lishi lozim. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi birinchi ustoz, ibrat namunasi va axloqiy fazilatlar timsolidir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi o‘quvchilarga milliy qadriyatlar haqida tushuncha berayotganda quyidagilarga ahamiyat berishi zarur:

a)milliy qadriyatlar haqida tushuncha berayotganda o‘qituvchi o‘zi yetarli bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi;

b) har bir mavzuni milliy qadriyatlarga bog‘lay olishi;

c)o‘quvchilarining ongiga milliy qadriyat tushunchasini singdira olishi;

ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mahorat bilan foydalana olishi.

Milliy qadriyatlar nima ekanligi umuman olganda qadriyat so‘zining mohiyatini o‘qituvchi o‘zi tushunishi va buni o‘quvchilariga yetkazib berishi kerak. O‘qituvchi milliy bayramlar, teatr, sahna ko‘rinishlari orqali milliy qadriyat tushunchasini amaliy tarzda tushuntirib berishi kerak. Albatta, bu o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarning rivojlanishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishida, o‘zligini anglashda yetakchilik qiladi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar uchun ilk bosqich sanaladi. Boshlang‘ich ta’limda olgan bilimlari kundan – kunga, yildan-yilga shakllanib, o‘sib kelajakda bolaning kim bo‘lishini belgilab beradi. Bolaga boshidan boshlab to‘g‘ri tarbiya berilsa, u shu yo‘nalishda davom etadi. Bunda faqatgina o‘qituvchi emas, ota-ona hamkorligi ham muhim rol o‘ynaydi. Maktabga kelishidan avval tarbiyani, odobaxloqni oiladan ya’ni ota-onasidan oladi. Oilaviy muhit bolaning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota- ona bolaning bilimiga, yurish -turishiga , tarbiyasiga e’tibor berib nazorat qilib tursa, bola o‘z chegarasida chiqmaydi. Demak , ota-ona va o‘qituvchi hamma jarayonlarda o‘zaro hamkorligini yo‘qotmagan holda ish olib borishlari kerak.

Milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar bola tarbiyasida milliy tilni, milliy o‘zlikni, milliy ma’naviyatni , milliy an’analarni shakllantirish, rivojlantirish kabilarni ta’minlab beruvchi vositadir. Bugungi kunda barcha ta’lim maskanlarida, oilalarda yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda milliy qadriyatlarga tayanish ijobiy samara bermoqda desak, adashmaymiz. Shu jumladan, bola o‘zining urf-odatlari, qadriyatlari va tarixiy xotirasini bo‘lsa, u kelajakda xalqining haqiqiy vakiliga aylanadi.

Milliy qadriyatlar, ma’naviyat alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruhlar faoliyatida ham, umuman jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Demak, milliy qadriyat ruhidagi tarbiya bolaning o‘sishi va shakllanishida yordam beradi va ulkan poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kunda eng dolzarb va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar yosh avlodning ma’naviy kamoloti, axloqiy yetukligi va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida berilgan tarbiya bolaning keyingi hayot yo‘liga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, o‘qituvchi va ota-onaning o‘zaro hamkorligi, o‘qituvchining shaxsiy namunaligi hamda ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish orqali milliy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga chuqur singdirish zarur. Natijada, o‘z milliy o‘zligini anglagan, ma’naviy barkamol, vataniga sadoqatli va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyev D. “ Milliy qadriyatlar va ularning milliy -ma’naviy tiklanishida tutgan o‘rni “. Toshkent. 2014-yil.

2. Burhonova S.G. “Bolalarda milliy qadriyat ruhini rivojlantirish “ . Metodik qo‘llanma. Toshkent. “O‘qituvchi” . 2019-yil.
3. Xolmuhammedov U. “Zamonaviy maktab va milliy tarbiya “. Toshkent. “Fan” . 2018-yil.
4. Musurmonova O . “Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi “ . Toshkent. 2004-yil.
5. Xo‘jamurodov I. “Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash “.
6. Toshkent. 2010-yil.